

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.9:338.6:004(077)631.9(575.1)

MAMASOATOV DILSHOD RAVSHANOVICH

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philodophy)
ilmiy darajasini olish olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Kenjabaev Aman Turgunovich
iqtisod fanlari doktori, professor**

Toshkent – 2023 y

MUNDARIJA

| | | |
|---|--|-----|
| KIRISH | | 3 |
| I BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | | |
| 1.1-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning mazmun mohiyati..... | 13 |
| 1.2-§ | Tadbirkorlik faoliyati eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning hozirgi holati va o'ziga xos xususiyatlari..... | 24 |
| 1.3-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari..... | 39 |
| | Birinchi bob bo'yicha xulosa | 62 |
| II BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI | | |
| 2.1-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishdagi muammolar..... | 63 |
| 2.2-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportidagi masofaviy interaktiv xizmatlarni qo'llashning amaliy jihatlari..... | 74 |
| 2.3-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish uchun konsalting xizmatini joriy qilish asoslari..... | 89 |
| | Ikkinchi bob bo'yicha xulosa..... | 106 |
| III BOB. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI | | |
| 3.1-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish strategiyalari..... | 108 |
| 3.2-§ | Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish..... | 120 |
| 3.3-§ | Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash istiqbollari..... | 128 |
| | Uchinchi bob bo'yicha xulosa..... | 143 |
| | XULOSA | 144 |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI | 146 |
| | ILOVALAR | 153 |

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar har jihatdan tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bu texnologiyalar orqali tadbirkorlik subyektlari eksportiga alohida e'tibor berish va eksport jarayonida raqamli platformalardan foydalanishda elektron to'lovlarni amalga oshirish jarayoni ham jadal ravishda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunga kelib, "jahonda raqamli iqtisodiyotning o'sish sur'atlari yildan-yilga oshib borib, taraqqiy etgan davlatlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga qadar yetdi. Axborot-texnologiyalarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi AQShda – 10,9 foiz, Xitoyda – 10,0 foiz, Hindistonda – 5,5 foizni tashkil etmoqda"¹. Jahon miqyosida tadbirkorlik subyektlari eksporti mamlakatlarning YaIMda muhim o'rin tutganligi bois, bu sohani yanada jadal rivojlantirish va eksportdagi raqobatbardoshlikni kengaytirish maqsadida raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan samarali foydalanish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning tobora rivojlanishi va keng miqyosda tadbirkorlik subyektlari eksport jarayonida raqamli platformalardan foydalanish XXI asrning global tendensiyasiga aylangan bo'lib, tadbirkorlik subyektlari eksportining raqamli platformalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Eksport jarayonini raqamlashtirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida raqamli platformalarning keng ko'lamli tarmog'ini rivojlantirishda ulkan ma'lumotlar bazasini yaratish «Big Data» (ulkan ma'lumotlar) va foydalanuvchilar Internet-platformada axborot texnologiyalari resurslarda ma'lumot kiritish yoki olish uchun «Cloud Somputing» (bulut texnologiyasi) ishlatadilar. Shuningdek, raqamli ekotizim bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

¹ <https://review.uz/post/uzbekistan-otsifroviyvaetsya>.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Raqamli O‘zbekiston-2030» milliy dasturi doirasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish asosiy vazifa sifatida ko‘rilmoqda»². Shu bilan birgalikda, raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko‘rib chiqish, eksportni amalga oshirishda elektron savdo maydonchalaridan foydalanishni amalga oshirish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda «yo‘l xarita»lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalalari ko‘rilmoqda»³. Bu borada hududlardagi tadbirkorlik ub’ektlari eksportini rivojlantirish, zarur bo‘lgan raqamli platformalardan foydalanish hamda takomillashtirishni hisobga olgan holda ilmiy tadqiqot ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

«O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni, 2018 yil 29 noyabrdagi PF-5587-son «Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston - 2030 Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 16 martdagi PQ-2507-son «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 6 noyabrdagi PQ-3377-son «Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020 y., 06/20/6079/1349-son.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarori, 28.04.2020 yil